

## TYUTORLIK FAOLIYATIDA YETAKCHILIK KO‘NIKMALARINI NAMOYON BO‘LISHI

*Alijonov Nurbek Ulug‘bek o‘g‘li  
Farg‘ona davlat universiteti  
Psixologiya kafedrasida o‘qituvchisi*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19436563>

**Annotasiya:** ushbu maqolada OTMlarda “tyutorlik” instituti joriy etilib, universitet va talaba o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, talabalarning ta’lim muhitiga moslashuvi hamda ijtimoiy-pedagogik va psixologik qo‘llab-quvvatlashi, raxbarning maxsus qobiliyatlari va unga tayyorgarlik masalasi, o‘zi qo‘ygan muammoning yechim yo‘llarini, tajriba xususiyatini, uning natijalarini borasida fikrlar taxlil qilingan

**Kalit so‘zlar:** tyutorlar, qobiliyat, ta’lim muhiti, talabalar, normativ hujjatlar, ijtimoiy munosabatlar

### ПРОЯВЛЕНИЕ ЛИДЕРСКИХ НАВЫКОВ В ТЮТОРСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

*Алижонова Нурбека Улугбек угли  
Ферганский государственный университет  
Преподаватель кафедры психологии*

**Аннотация:** в данной статье анализируются мнения о внедрении института "тьюторства" в вузах, укреплении сотрудничества между университетом и студентом, адаптации студентов к образовательной среде и социально-педагогической и психологической поддержке, специальных способностях руководителя и подготовке к нему, путях решения поставленной им проблемы, характере опыта и его результатах.

**Ключевые слова:** тьюторы, способности, образовательная среда, студенты, нормативные документы, социальные отношения

### MANIFESTATION OF LEADERSHIP SKILLS IN TEACHING ACTIVITIES

*Alijonov Nurbek Ulugbek ugli  
Fergana State University  
Psychology Department Lecturer*

**Abstract:** This article analyzes opinions on the introduction of the institution of "tutoring" in higher education institutions, strengthening cooperation between the university and the student, students' adaptation to the educational environment and social-pedagogical and psychological support, the special abilities of the leader and preparation for him, ways to solve the problem he poses, the nature of the experience and its results.

**Keywords:** tutors, abilities, educational environment, students, regulatory documents, social relations

Respublikamizda oliy ta’limni modernizatsiya qilish va talabalarga individual yondashuvni kuchaytirish doirasida OTMlarda “tyutorlik” instituti joriy etilib, u universitet va talaba o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash, talabalarning ta’lim muhitiga moslashuvi hamda ijtimoiy-pedagogik va psixologik qo‘llab-quvvatlashni ta’minlashga xizmat qilmoqda. Amaldagi normativ hujjatlarga ko‘ra, OTMlarda tyutorlarga bakalavriatning kunduzgi ta’lim shaklida tahsil olayotgan 1–3-kurs talabalari birlashtiriladi va har bir tyutor zimmasiga, qoida tariqasida, 120–150 nafar talaba to‘g‘ri keladi. Bu ko‘rsatkich tyutorlik faoliyatining ko‘lami va mas’uliyati yuqoriligini, shuningdek, talabalarga samarali yordam ko‘rsatishda tyutorlarning tashkilotchilik hamda kommunikativ ko‘nikmalari yetakchi omil ekanini asoslaydi.

Har bir davrdagi ijtimoiy munosabatlar o‘ziga xos ravishda ijtimoiy mavqe jihatidan kimningdir yuqori darajada turishini taqozo etgan bo‘lsa, ikkinchidan, insonlarning hayot kechirish tarzi, ravnaqi, darajasi, farovonligi, baxtli turmush kechirishi shu yuqori mavqedagi shaxsga, uning turli fazilatlarini yani ularning insonparvarligi, demokratik bo‘lishi, kommunikativ ko‘nikmalari va boshqa xislatlariga bog‘liq bo‘lganligidir.

Rahbarning faoliyatiga xos sharqona qarash va yondoshuvlar ham mavjud bo‘lib, mutafakkir ajdodlarimiz boshqaruv faoliyatining nazariy va tahliliy jihatlariga to‘xtalinib, adolatli va adolatsiz munosabatlar yuzaga kelishi rahbar shaxsiga bog‘liq ekanligi to‘g‘risidagi fikrlarni keltiradilar.

“Bizning qadimiy va go‘zal diyorimiz nafaqat sharq, balki jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo‘lganini xalqaro jamoatchilik tan olmoqda va e’tirof etmoqda. Bu tabarruk zamindan ne-ne buyuk zotlar, olimu ulamolar, siyosatchi va sarkardalar yetishib chiqqanini, umumbashariy sivilizatsiya va madaniyatning uzviy qismiga aylanib ketgan dunyoviy va diniy ilmlarning, ayniqsa, Islom dini bilan bog‘liq bilimlarning tarixan eng yuqori bosqichga ko‘tarilishida ona yurtimizda tug‘ilib kamolga yetgan ulug‘ allomalarning xizmatlari beqiyos ekani bizga g‘urur va iftixor bag‘ishlaydi”.

XI asrning yirik allomalaridan Yusuf Xos Xojib o‘zining «Qutadg‘u bilig», ya’ni «Saodatga boshlovchi bilim» asarida boshqaruvchi shaxsi, ya’ni podsho xalq bilan birga va adolatli bo‘lishi lozimligi g‘oyasi ilgari suriladi. Uning o‘git va nasihatlarini hokimlarga qaratilgan bo‘lib, boshqaruvchi rahbar tevaragida tabiatan yaxshi niyatli, yuksak axloq sohibi bo‘lgan kishilar bo‘lgandagina, u to‘g‘ri ishlar qilishi, to‘g‘ri farmonlar chiqarishi mumkin, shundagina mamlakat farovon bo‘lib ravnaq topadi. Yuqoridagilardan farqli o‘laroq, alloma Yusuf Xos Hojibning o‘sha davrda kosib hunarmandlarga naqadar xayrixohligi o‘z o‘zidan emasdi. Chunonchi, davlatning tinch osoyishtaligi, jahonda tutgan o‘rni, boyligi, xalqning farovonligi ana shu toifadagi kishilarga bog‘liq bo‘lgan [120;113-b]. A.G.Kovalev mazkur muammoga ko‘p qirrali yondashishga intiladi va bu boradi muayyan muvaffaqiyatlarni qo‘lga kiritadi. Tadqiqotning birinchi masalasi jamoadagi nizolar va ularning oldini olishga bag‘ishlanadi. Bunda nizoning psixologik talqini, kelib chiqish sabablari, tasniflash mezonlari, tamoyillari oldini olib yo‘llari va bartaraf etish vositalari yuzasidan mulohaza yuritiladi. Tadqiqotning ikkinchi muammosi qaror qabul qilish (qarorga kelish) psixologiyasi va ijroni tashkillashni o‘rganishdan iboratdir. Rahbar tomonidan qaror qabul qilishning bosqichlari, uni ijro etishning tashkillashtirish, jamoa va rahbar faolligini rag‘batlantirish vositalari to‘g‘risida atroflicha mulohaza yuritiladi.

Tadqiqotning yana bir jabhasi jamoaga va shaxsga nisbatan rahbarning murojaat qilishi va munosabati uslubiga qaratiladi. A.G.Kovalev munosabatlar psixologiyasi, simpatiya munosabati va rahbarlik, printsiptiallik odamlarga nisbatan rahbarning munosabatining ijtimoiy, umumiy ko‘rsatkichi ekanligi, murojatning o‘ziga xos xususiyatlari, variatsiyalari, invariantlari, shakllari, bosqichlari yuzasidan ma’lumotlar tahlil qilinadi. Rahbarning maxsus qobiliyatlari va unga tayyorgarlik masalasi monografik tadqiqotning asosini tashkil qiladi. Xuddi shu boisdan tadqiqotning tartiblari original atamalar orqali mohiyati ochiladi va tuzilmali jabhalarni talqin etiladi, natijada izlanishning konseptual modeli yaratiladi. Jumldan, 1) jamoani boshqarish – qan va san‘at; 2) mehnatga kasbiy psixologik tayyorgarlik; 3) rahbarning tashkilotchilik qobiliyati; 4) rahbarning pedagogik qobiliyatlari; 5) rahbarning tashkilotchilik faoliyatining yuksak namunalari; 6) rahbar qobiliyatlarini rivojlantirish va tayyorgarlikni takomillashtirish yo‘l-yo‘riqlari kabilari.

AQShda tyutor masalasi o‘rganish uslubini, o‘zi qo‘ygan muammoning yechim yo‘llarini, tajriba xususiyatini, uning natijalarini ko‘rsatadi va tushuntiradi. Ya’ni u tadqiqotchi yoki maslahatchi sifatida namoyon bo‘ladi.

Xorijiy ta’limda so‘nggi yillarda bir qator atamalar keng ishlatilmoqda. Bularga tyutor, edvayzer, fasilitator va moderator tushunchalari kiradi.

Tyutor - (“Tutorem”-lotincha ustoz) murabbiy vazifasini bajaradi. Ba’zi hollarda ma’ruza o’qituvchisi bilan tinglovchi orasidagi bog’lovchi rolini ham bajaradi. Bunda ma’ruzachi tomonidan berilgan bilimlarni keng egallashda maslahatchi va ustoz rolini bajaradi.

Edvayzer (“advisor” – fransuzcha “avisen”“o’ylamoq”) tinglovchilarning individual holda bitiruv malakaviy ishi, kurs loyixalarini bajarishda maslahatchi rolini bajaradi.

Fasilitator - (ingliz tilida “facilitator”, lotincha “facilis”–yengil, qulay)- guruhlardagi faoliyat natijasini samarali baholash, muammoning ilmiy yechimini topishga yo’naltirish, guruhdagi kommunikatsiyani rivojlantirish kabi vazifalarni bajaradi.

Moderator - qabul qilingan qoidalarga amal qilish tekshiradi, tinglovchilarning mustaqil fikrlash va ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish, bilish faolyatini faollashtirishga yordam beradi.

Tyutorlik faoliyati mamlakatimizda yangi kirib kelayotgan kasb sohasi bo’lsada, ushbu faoliyat xorij mamlakatlarida bir necha asrlar avval paydo bo’lgan. Tyutorlik 12-asrda Angliyada Oksford va Kembrijda paydo bo’lgan. O’sha davrda ta’lim standartlari va talaba uchun katta akademik erkinlik mavjud bo’lmaganligi uchun, talabaga berilayotgan katta hajmdagi ta’lim xizmatlarini boshqarishga va ularni talabaning shaxsiy imkoniyatlari va ehtiyojlari bilan solishtirishga yordam beradigan murabbiyga muhtojlik seziladi. Tyutor talaba bilan muloqot o’rnatib, qaysi amaliy mashg’ulotlar va ma’ruzalarda qatnashish kerakligini aniqlashga yordam beradi, individual o’quv rejasini tuzishga yordam beradi, professor-o’qituvchilar talabalarining topshiriqlarni bajarilishini va talabalarining imtihonlarga tayyorligini nazorat qiladi.[28]

Mavjud adabiyotlarda tyutorlik faoliyati XII asrdagi Yevropa universitetlari, jumladan Oksford, Kembrij universitetlari tarixi bilan chambarchas bog’liqligi va Buyuk Britaniyada shakllanganligi ta’kidlangan [11; 246-b].

Tyutorlik faoliyati taxminan XIV asrda ingliz universitetlari Oksford va biroz keyinroq Kembrijda shakllangan va bu bo’yicha mavjud tajribalarning tahlillariga ko’ra, shu davrdan boshlab tyutorlikning universitet murabbiyligi sifatida tarixiy rivojlanganligini ko’rish mumkin.

Bu davrda universitetlarga dastlab o’qituvchilar va talabalarining uyushmalari sifatida qaralgan va talabalar bir xildagi muayyan kurslarda ishtirok etishi talab etilmagan, qaysi professorni tinglashni yoki qaysi fanlarni o’rganishni talabaning o’zi hal qilishi lozim bo’lgan. Har bir professor o’zining kitobini o’qigan va sharhlagan. Shuning uchun talabalar nafaqat o’zining, balki boshqa ta’lim muassasalar professorlari ma’ruzasini tinglashlari mumkin bo’lgan. Universitet esa, o’z talabalarini faqat bitiruv imtihonlariga qo’ygan. Bunda talabalarga kurs yakunida tegishli darajani olishi uchun zarur bo’lgan bilimlarni egallashda, o’z yo’lini tanlash jarayonida tyutorlar yordam ko’rsatishgan [11; 246-b].

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati**

1. G’oziyev E. **Zamonaviy rahbar qiyofasi** // Xalq ta’limi, 2000, 2-son. – 28 b.
2. Maxmudov I. **Boshqaruv psixologiyasi** // Toshkent: «YUNAKSPRINT», 2006. – 200 b.
3. Karimova V. M. **Ijtimoiy psixologiya** // Toshkent. 2012 – 172 b.
4. Karimova V.M. **Ijtimoiy psixologiya asoslari** // Toshkent: «O’qituvchi», 1994. – 180 b.
5. Xuseynov B.M. **O‘zbekiston Respublikasi “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati a'zolarida zamonaviy liderlik qobiliyatlarini shakllantirish** // Toshkent: 2009. – 215 b.
6. To’raqulov X.A. **Ilmiy ijodiyot metodologiyasi** // Toshkent, 2016. – 14 b.